



Jahon tilshunosligida o'quv lug'atchiligining rivojlanish tarixi

Qutliyeva Dilnoza Muzaffar qizi

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning leksikografiya bo'limining alohida tarmog'i bo'lmish o'quv leksikografiyasining paydo bo'lish tarixi, rivojlanishi va dunyo tilshunosligida o'quv lug'atchiligi bo'yicha ish olib borgan olimlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistika, leksikografiya, o'quv lug'atchiligi, lug'at.

Jahon leksikografiyasi ilk yozma adabiyot, xususan, lingvistik manbalar lug'at ko'rinishida davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy ehtiyojlarini qondirish zarurati bilan yuzaga kelgani, dastlabki lug'atlar til o'rganish maqsadi bilan yaratilgani va maktab qo'llanmasi, grammatika vazifasini bajarganini ilmiy asoslab berdi. «Mazkur lug'at namunalari barchasini quyidagi umumiy maqsadlar birlashtirgan:

- 1) muqaddas kitoblardagi diniy tushunchalar hamda antik yozuvchilar asarlaridagi ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlash;
- 2) nutq o'stirish, notiqlikka o'rgatish;
- 3) mafkura manfaatlariga xizmat qilish;
- 4) adabiy tilni me'yorlashtirish;
- 5) tillararo va madaniyatlararo aloqani ta'minlash».

Aynan ana shu maqsadlar jahon o'quv lug'atchiligida mazkur manbalarga nisbatan sof o'quv maqsadi bilan yuzaga kelgan, hozirgi lug'atlar asli o'quv lug'atlarining avlodi, keyinchalik lug'at turlari va vazifalari kengayib, o'quv lug'ati umumiy lug'atlarning bir ko'rinishi sifatida qarala boshlagan degan qarashlarning ilgari surilishiga asos bo'lgan.

XX asr boshlariga kelib o'quv lug'atchiligi umumiy leksikografiyadan ajralib chiqadi va o'quv lug'atlarining zamonaviy avlodlarini yaratishga alohida e'tibor qaratadi. Sohaga doir ilmiy tadqiqotlarda o'quv lug'atchiligi haqida gap ketar ekan, ko'p hollarda L.A.Novikovning «o'quv lug'atchiligi – bu kichik hajm va katta ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan leksikografiya» degan ta'rifi keltiriladi. P.N.Denisov o'quv lug'atiga til o'qitishning metodik ta'minoti, lingvodidaktik nashr deb qaraydi.



V.V.Dubichinskiy o'quv lug'ati nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari – o'rganilayotgan til haqidagi ham retseptiv (tildagi leksik birliklar va ularning ma'nolari haqidagi ko'nikmalar), ham reproduktiv (o'zlashtirilgan u yoki bu leksik birliklarni amalda qo'llay bilish ko'nikmasi) ma'lumotlarni qamrab olishi lozimligini ta'kidlaydi.

Ko'rinib turibdiki, o'quv lug'atida lingvistik va metodik maqsadlar kesishadi. Ya'ni lug'at, bir tomondan, o'rganilayotgan til materialini taqdim qilsa, ikkinchi tomondan, ushbu materialni qanday taqdim qilish kerak, degan savolga ham javob berishi kerak. O'quv lug'atiga ayrim tilshunoslar «tilni o'qitish maqsadi bilan tasvirlaydigan vosita», deb ham ta'rif beradilar va bu ta'rif o'zida ikki o'zaro mustaqil fan maqsadlarini uyg'unlashtiradi. Shu tariqa tilshunoslik va pedagogika fanlari oralig'ida yangi lingvodidaktik yo'nalish – o'quv lug'atchiligi tarmog'iga asos solinadi.

O'quv leksikografiyasi nafaqat ta'limiy lug'atlar tuzish bilan shug'ullanadi, balki o'quv lingvostatistikalar, leksik minimumlar, leksikani o'quv maqsadida aks ettirgan o'quv qo'llanmalar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadigan amaliy fan hisoblanadi. Umuman, jahon leksikografiyasida bu soha ancha chuqur va atroflicha o'rganilgan, turli yoshdagi ta'lim oluvchilar uchun son-sanoqsiz lug'atlar yaratilgan. Xususan, P.N.Denisov, L.A.Novikov, V.V.Morkovkin, L.V.Malaxovskiy, V.G.Gak, O.M.Karpova, M.A.Marusenko, V.A.Balzamov kabilarning tadqiqotlarini sanab o'tish mumkin.

O'quv lug'atchiligi taraqqiyotida rus tilshunosligi alohida o'rin tutib, uning eng taraqqiy etgan davri XX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Ushbu davrda turli leksik sath birliklari lug'ati bilan bir qatorda sinonim lug'atlar ustida ham yetarlicha izlanishlar olib borildi. Xususan, P.S.Aleksandrov, S.F.Levchenko, Y.N.Denisov, A.Y.Mashkovseva, Y.V.Zubova, O.A.Voloshina, I.A.Siddiqova, O.I.Nedostup, N.M.Merkuryeva, L.V.Alimpiyeva va boshqalarning ishlarini sanab o'tish mumkin.

Sobiq sho'ro davrida milliy tilshunosliklarda o'quv lug'atchiligi, asosan, mafkura tili bo'lgan rus tilini o'qitish negizida ikki tilli lug'atchilik ko'rinishida rivojlandi. Bu sohada amalga oshirilgan ishlar, xususan, M.X.To'xtaxo'jayeva, M.M.Abduraximov, B.T.Hayitov, T.A.Bushuy, G.A.Kallibekova, I.A.Siddiqova, G.I.Boboyevalarning tadqiqotlari ham ikki tilli lug'atlar ustida amalga oshirildi. Sinonim lug'atlar ustida bajarilgan tadqiqotlar ham, asosan, rus tili materiallari asosida amalga oshirildi. Jumladan, istiqlolning dastlabki



yillarida akademik A.Hojiyev rahbarligida I.A.Siddiqova sifat sinonimlarning o‘quv lug‘atlarda berilishi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Aytilganidek, ushbu dissertatsiya uchun tadqiq ob‘ekti sifatida 1990 yilda A.P.Hojiyev va S.L.Kimlar muallifligida nashr etilgan rusiyzabon foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan «O‘zbekcha-ruscha sinonimlar lug‘ati» tanlanadi.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu davrda milliy tilshunosliklarda bajarilgan tadqiqotlar uchun ham rus tilidan boshqa tomonidan turli aspektlarda maxsus tadqiq qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бахриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув лугатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд. 2020.
2. Денисов П.Н. Учебная лексикография: итоги и перспективы // Проблемы учебной лексикографии. – Москва, 1977.
3. Дубичинский В.В. Теоретическая и практическая лексикография. – Вена: Харьков, 1998.
4. Новиков Л.А. Учебная лексикография и её задачи // Вопросы учебной лексикографии. – Москва, 1969.
5. Сиддикова И.А. Семантизация прилагательных в учебном узбекско-русском синонимическом словаре: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1995.